



CHRISTIANITY, JUDAISM AND ISLAM IN THE PROCESS OF ADAPTATION TO CHINESE SOCIAL LIFE (17th–18th Centuries)

Arif Umarovich Akhmedov

Master's Student at the International Islamic Studies

Academy of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Islam, Christianity, Judaism, Hui, Confucius, Han, Tang, Ming, Qing, Matteo Ricci, Shenshi, Tian, Shangdi, Nanjing Incident, Jesuits, Shen Jue, Buddhist, Daoism, Chinese Jews, Kaifeng, Xiyu, Sun, Zhu Yuanzhang, Yellow River, Chinese Muslims, Chang'an."

Received: 02.12.25

Accepted: 03.12.25

Published: 04.12.25

Abstract: China, with its rich history and spiritual heritage, is recognized as one of the cradles of world civilization. Over the centuries, various religious traditions developed on this land, forming great moral and cultural values. Christianity, Judaism, and Islam also spread in this region and influenced the cultural life of the peoples living in China. This article discusses the history of the spread of Christianity, Judaism, and Islam in China, their impact on the country's political, economic, and spiritual life, as well as the condition of these religions in the 17th–18th centuries.

XRISTIANLIK, YAHUDIYLIK VA ISLOM DINLARINING XITOIY IJTIMOIIY HAYOTIGA MOSLASHUV JARAYONI (XVII – XVIII ASRLAR)

Arif Umarovich Axmedov

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi magistri

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Islom, xristianlik, yahudiylik, xuey, Konfutsiy, Xan, Tang, Min, Sin, Matteo Richchi, Shenshi, Tyan, Shangdi, Nankin voqeasi, iyezuitlar, Shen Tsyue, buddist, daotsizm, xitoy yahudiylari, Kayfeng, Siyu, Sun, Chju Yuanchjan, Xuanxe, xitoy musulmonlari, Chan'an.

Annotatsiya: Xitoy o'zining boy tarixi va ma'naviy boyliklari bilan jahon tamaddunining beshiklaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Bu zaminda asrlar mobaynida turfa diniy qarashlarning shakllanib taraqqiy etishi natijasida buyuk ma'naviy qadriyatlar qaror topgan. Jumladan xristianlik, yahudiylik va islom dinlari ham mazkur diyorda yoyilib,

xitoyda mavjud xalqlar madaniy hayotida o'z ta'sirini namoyon qilgan. Mazkur maqolada xristianlik, yahudiylik va islom dinlarning Xitoyda yoyilish tarixi va davlatning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotiga qanchalik ta'sir etgani, hamda sanab o'lgan dinlarning XVII-XVIII asrlardagi holati haqida so'z boradi.

ПРОЦЕСС АДАПТАЦИИ ХРИСТИАНСТВА, ИУДАИЗМА И ИСЛАМА К СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ КИТАЯ (XVII–XVIII ВЕКА)

Ариф Умарович Ахмедов

*Магистрант Международной академии исламоведения Узбекистана
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: ислам, христианство, иудаизм, хуэй, Конфуций, Хань, Тан, Мин, Цин, Маттео Риччи, шэньши, Тянь, Шанди, Нанкинский инцидент, иезуиты, Шэнь Цюэ, буддист, даосизм, китайские евреи, Кайфэн, Сиюй, Сун, Чжу Юаньчжан, Хуанхэ, китайские мусульмане, Чанъань.

Аннотация: Китай с его богатой историей и духовным наследием признан одним из колыбелей мировой цивилизации. На этой земле на протяжении веков формировались и развивались различные религиозные учения, в результате чего сложились великие духовные и культурные ценности. Христианство, иудаизм и ислам также распространились в этом регионе и оказали влияние на культурную жизнь народов, проживающих в Китае. В данной статье рассматривается история распространения христианства, иудаизма и ислама в Китае, их влияние на политическую, экономическую и духовную жизнь страны, а также состояние перечисленных религий в XVII–XVIII веках.

Kirish. Dunyo tarixida diniy e'tiqodlarning tarqalishi insoniyat madaniyati va jamiyat rivojida muhim rol o'ynagan. Har bir din yangi hududga kirib kelganda, u o'zining asliyat bilan birga mahalliy madaniyat, falsafa va ijtimoiy tuzilishga ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, u yangi sharoitga moslashish, o'zlashtirish yoki transformatsiyaga duch keladi.

Xitoy – qadimiy madaniyatlar markazi bo'lib, bu yerda turli dinlar uzoq tarix davomida rivojlangan. Xitoyda xristianlik, yahudiylik va islom dini boshqa dunyo dinlaridan keyin kirib kelgan bo'lsa-da, ular mahalliy diniy-falsafiy qarashlar, siyosiy va ijtimoiy tuzilishga turlicha moslashishga harakat qilgan. Xristian missionerlar, asosan iyezuitlar, Konfutsiylik ta'limoti bilan uyg'unlikni ta'minlash orqali o'z dinlarini yoyishga uringan; yahudiylar esa mahalliy jamiyatga assimilyatsiya qilinib, tinch hayot kechirishga muvaffaq bo'lgan; musulmonlar esa savdo yo'llari

va harbiy tashriflar orqali Xitoyga kelib, masjidlar orqali diniy tarbiya va madaniy ta'sirini kuchaytirgan.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – Xitoyda uch asosiy jahon dinining tarixi, ularning mahalliy madaniyat va falsafiy qarashlarga moslashuvi, shuningdek, ijtimoiy hayotdagi o'rni va ta'sirini o'rganishdir. Tadqiqot natijalari dunyo dinlari tarixi, madaniy almashinuv va sivilizatsiyalararo integratsiya jarayonlarini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Tadqiqotda tarixiy-uslubiy, taqqoslash, interpretativ va sotsiokulturaviy metodlar qo'llanilib, dinlarning tarqalishi va mahalliy sharoitga moslashuvi tahlil qilindi. Bu yondashuv Xitoydagi diniy jarayonlarning murakkabligini va ularning mahalliy madaniyat bilan o'zaro bog'liqligini aniq tasvirlash imkonini beradi.

Tadqiqot usullari. Mazkur tadqiqot Xitoy hududida XVII–XVIII asrlarda xristianlik, yahudiylar va islom dinlarining mahalliy ijtimoiy-madaniy muhitga moslashuvi jarayonini o'rganishga qaratilgan bo'lib, quyidagi usullar majmuasidan foydalanildi.

1. Tadqiqotning obyekti

Tadqiqotning asosiy obyekti quyidagilardan iborat bo'ldi:

- Xristianlikning Min va Sin sulolalari davridagi missionerlik faoliyati, xususan, Matteo Richchi boshchiligidagi iyezuitlar faoliyati.
- Xitoy yahudiylarining Kayfendagi jamoasi, ularning diniy, madaniy va ijtimoiy hayoti, ibodatxona tarixi, til-madaniy assimilyatsiya jarayonlari.
- Xitoydagi musulmon jamoalar, jumladan, Tang, Yuan va Min davrlari musulmon aholisi, Xuey jamoasining shakllanishi, diniy ta'lim va tarjima maktablari.

2. Tadqiqotning predmeti

Dinlar Xitoyga kirib kelgach, ularning:

- mahalliy sharoitga moslashuvi,
- konfutsiylik, buddizm va daotsizm bilan o'zaro ta'siri,
- diniy amaliyotlar va g'oyalarning o'zlashishi yoki rad etilishi,
- jamoalarning ijtimoiy hayotidagi o'rni

kabi jihatlar tadqiq etildi.

3. Tadqiqot manbalari

Tadqiqotda quyidagi tarixiy yozma manbalar asos qilib olindi:

- L.S. Vasilyevning "Sharq dinlari tarixi" asari,
- Kayfeng yahudiy jamoasiga oid tosh stelalar, ibodatxona hujjatlari,
- Xitoy sulolalari (Tang, Yuan, Min, Sin) davriga oid rasmiy yilnomalar,
- Xitoy musulmonlari tomonidan yozilgan diniy-axloqiy risolalar,
- Matteo Richchi va boshqa missionerlarning xatlar, raportlar va kundaliklari,

- Juvayni va boshqa tarixchilarning mo'g'ullar davri manbalari.

4. Tadqiqot usullari

Tarixiy-xronologik tahlil

Dinlarning Xitoyga kirib kelish bosqichlari, muhim tarixiy hodisalar (1616 yildagi ta'qib, Min va Sin sulolalari siyosati, Kayfeng ibodatxonasining qayta qurilishi) ketma-ketlikda o'rganildi.

Taqqoslash usuli

Xristianlik, yahudiylilik va islomning:

- moslashuv strategiyalari,
 - mahalliy an'analar bilan uyg'unlashuv darajasi,
 - jamoalarning Xitoy jamiyatidagi maqomi
- o'zaro taqqoslab tahlil qilindi.

Madaniy-antropologik yondashuv

Jamoalarning:

- oilaviy urf-odatlar,
- diniy marosimlari,
- til va madaniy o'zgarishlari,

mahalliy xitoy jamiyati bilan qanday integratsiyalashgani o'rganildi.

Manbashunoslik tahlili

Tosh stelalardagi yozuvlar, ibodatxona hujjatlari, missionerlar xatlari va sulolaviy yilnomalar tahlil qilinib, ularning ishonchliligi va tarixiy qiymati baholandi.

Sivilizatsion yondashuv

Har bir dinning Xitoy sivilizatsiyasi bilan o'zaro aloqasi:

- konfutsiylik bilan ideologik moslashish (xristianlik misolida),
 - Xitoycha bayram taqvimi va urf-odatlarga qo'shilish (yahudiylilik misolida),
 - islomiy madaniyatning Xuey etnosini shakllantirishdagi roli (islom misolida)
- doirasida o'rganildi.

RESULTS/ РЕЗУЛЬТАТЫ/ НАТИЖАЛАР

Dunyoning yirik diniy e'tiqodlari tajribasidan ma'lumki, har bir din o'z sarhadidan tashqari chiqqanidan keyin undagi ma'naviy, madaniy va maishiy unsurlar yangi mahalliy sharoitda asosan ikki – "o'zlashuvchi" yoki "o'zlashtiruvchi" sifatiga yuz tutadi.

«Tarixning guvohlik berishicha, - deb yozgan prof. L.S. Vasilyev o'zining «Sharq dinlari tarixi» nomli monografiyasida, - har qanday xorijiy ma'naviyat mazmunan qanday boy bo'lishiga qaramasdan, u Xitoyga kirib kelishi bilan shunday bir kuchli transformatsiyaga duchor bo'lardiki, natijada yangi original g'oyalar tizimi va institutlar paydo bo'lib, ularning odatdagi xitoycha

tushuncha, tamoyil va normalarga moslashuvi bois «yangi ta'limot»da o'z asliyatidan faqat ibtidoiy g'oyasini eslatuvchi chizgilarigina saqlanib qolardi, xolos» [1].

Xristianlik dinini yoyishga harakat qilgan iyezuitlar o'z dinlarining xitoy diniy-falsafiy ta'limotlariga zid bo'lmagan jihatlarini tushuntirish orqali o'z dinlarini targ'ib qildilar. Bu uslubni yahudiylik va islom dini vakillari ham qo'llashga harakat qildilar. Ammo natija uch din vakillarida uch xilda bo'ldi.

Xristianlik Xitoyga g'arbdan kelgan va buddizmdan keyin, islomdan oldin ikkinchi bo'lib kirib kelgan uchta asosiy jahon dinlaridan biridir. Xristianlikning birinchi to'liqini bizning eramizning dastlabki asrlarida kelgani aytiladi. Xristianlikning Xitoy hududida yoyilish jarayoni bir nechta tarixiy bosqichlarga bo'linadi. Jumladan keying bosqichi milodiy VII asrga to'g'ri kelsa, keyinchalik Yuan, Min va Sin sulolalari davrida ham xristianlik dinini yoyishga harakatlar bo'lgani tarixdan ma'lum.

Xitoy yahudiylari esa mazkur hududda 2 ming yildan ortiq vaqtdan beri yashab kelmoqda. Ularni mamlakatga olib kelgan yo'llar har xil, jamoalar soni doimiy ravishda o'zgarib turadi, ammo bu xalqning Xitoy rivojlanishidagi o'rni katta.

Xitoyga musulmonlarning dastlabki tashrifi milodiy VII asr to'g'ri keladi. Keyinchalik VIII asrga kelib, Yuan imperiyasi davrida o'sha davrdagi qo'zg'olonni bostirishda ko'maklashish uchun minglab musulmon askarlari keladi. Keyinchalik ular o'sha hududda yashab qolganlar. Umuman olganda xitoyga islom dini savdo yo'li va yuqorida keltirilganidek askarlar orqali kirib kelgan.

XVII – XVIII asrlarga kelib, Xitoyda xristianlik, yahudiylik hamda musulmon jamoalari mavjud edi. Ammo xristianlik xitoy diniy-falsafiy qarashlariga to'la mos kelmadi. Bu esa Xitoyda xristianlikning keng yoyilishiga yo'l bermadi.

Xristianlikni yoyish maqsadida Xitoyga kelgan iyezuitlar, birinchi navbatda, o'qimishli amaldorlar "Shenshi" qatlamiga e'tibor qaratdilar. Ular Xitoyda hukmron bo'lgan mafkuraga imkon qadar moslashtirilgan nasroniylikni targ'ib qilish bilan birga, ularni Yevropa ilm-fan va texnikasining ba'zi yutuqlari bilan tanishtirib, o'zlariga jalb qilishga umid qilishdi. Buning uchun quyidagi yo'llardan foydalanishdi: xristian monoteizmini yagona oliy xudo "Tyan" yoki "Shangdi"ga sig'inadigan qadimgi Xitoy donishmandlari ta'limotining qayta tiklanishi sifatida taqdim etish mumkin edi; yoki ikkinchi uslub sifatida Konfutsiy klassikasidan sinchkovlik bilan tanlangan parchalardan foydalanish va xristian axloqini umumiy Konfutsiy axloqiga mos deb ko'rsatish mumkin edi. Min sulolasining oxiri (1368-1644) va Sin sulolasining boshida (1644-1911) Matteo Richchi boshchiligidagi missionerlar tomonidan ishlab chiqilgan xristianlikni Xitoyning diniy an'alariga "moslashtirish" strategiyasi o'z samarasini berdi. Ko'p sonli "Shenshi" iyezuitlarning ta'limotini qabul qildi. Shu bilan birga, nasroniylik ta'limotining ba'zi

jihatlarini o'zlarining madaniy an'analariga to'g'ri kelmaydi deb hisoblagan xitoyliklar orasida to'g'ridan-to'g'ri rad etishni keltirib chiqardi [2].

Iyezuitlar nasroniylarni ideallashtirilgan "birlamchi konfutsiylik" ga madaniy va sivilizatsiyaviy moslashtirish siyosatini qunt bilan amalga oshirganiga qaramay, Xitoy tomonida xristianlikning birinchi ta'qibi 1616 yilda sodir bo'lgan. Bu Richechi o'limidan olti yil o'tgach sodir bo'ldi. Quvg'in tashabbuskori Nankin marosim bo'limidan Shen Tsyue (1565–1624) bo'lib, u imperator sudiga missionerlar faoliyati to'g'risida uchta hisobot yuborgan. Bu yuqori martabali amaldorning chet ellik "bid'at"ga qarshi kurashga birinchi urinishi bo'lib, natijada bir qator iyezuitlar va xitoylik dindorlar hibsga olindi va "Nankin voqeasi" deb nomlandi. Shen Tsyuening ta'kidlashicha, iyezuitlar Xitoyga noqonuniy ravishda kelgan va fitna uyushtirgan, o'z ta'sirini kengaytirgan, keng ko'lamli xorijiy bosqinga tayyorgarlik ko'rgan. 1617 yil yanvar oyida hokimiyat iyezuitlarni xalqni aldashda va Xitoyda vahshiy odatlarni tarqatishda aybladi [3].

Xitoy diniy va mafkuraviy tizimi dunyo va insonning yaratilishi haqidagi hech qanday ta'limotni qabul qilmasdan konfutsiy, buddist yoki daotsizm e'tiqodchisi bo'lishi mumkin deb hisobladi. Boshqa tomondan, Xitoyning dunyoning siklik evolyutsiyasi g'oyasi dunyoning yaratilishidan to qiyomatgacha bo'lgan progressiv rivojlanishining nasroniylar kontseptsiyasiga mos kelmadi [4].

Xitoyda yahudiy jamoalari xristian jamoalaridan farqli ravishda ancha tinch yashahga erishdilar. Va jamiyatning har bir sohasida faol ishtiroklari bilan ajralib turdilar. Xitoyda mo'g'ullar hukmronligi davrida bu mamlakatdagi yahudiylar jamoasi tashqi dunyodan ajralgani yo'q va Xitoy madaniyatining chuqur ta'sirini hali boshdan kechirmagan edi.

Xitoy Min sulolasi hukmronligidan keyin, deyarli ikki yarim asr, XIV-asr oxiridan boshlab, XVII-asrning o'rtalariga qadar Xitoydagi yahudiylar til va madaniy jihatdan xitoylar tomonidan assimilyatsiya qilingan.

1489 yilga oid ma'lumotlar, Kayfeng ibodatxonasining tosh stelalaridagi yozuvlar xitoydagi yahudiylar haqida ma'lumot berib, tasdiqlaydi. O'sha paytda shaharda "bir necha yuz" yahudiy oilalari istiqomat qilganligi haqida xabar beradi. Ularning ajdodlari - 70 yahudiy oilalari bir vaqtlar "Siyu" ("G'arbiy mintaqa"), ya'ni Xitoyning g'arbiy qismida joylashgan mamlakatlardan, ehtimol Fors, Markaziy Osiyo yoki Hindistondan kelgan. Ular Sun sulolasining Xitoy imperatoriga paxta matolarini sovg'a qilib, Sun imperiyasining poytaxti Kayfenga joylashish uchun ruxsat olganlar [5].

Kayfendagi birinchi ibodatxona 1163 yilda Tszin sulolasi hukmronligi davrida qurilgan. Xitoyda Mo'g'ul Yuan sulolasi ag'darilib Xitoyning Min sulolasi hokimiyat tepasiga kelganidan 22 yil o'tib, 1390 yilda birinchi Min imperatori Chju Yuanchjan yahudiylarga yerlar va xizmatlari uchun imtiyozlar berdi. Yahudiylar tomonidan 1420 yilda imperator oilasida Min hukmdoriga

qarshi fitnani fosh qilingan. Keyin xitoylik yahudiylar xitoycha ismlarni qo'yish huquqini oldilar. Shu vaqtdan boshlab xitoylik yahudiylar ham xitoycha, ham ibroniycha nomlarga ega edilar [6].

1511-yilda yetti oilaning sa'y-harakatlari bilan Kayfeng ibodatxonasi qayta tiklandi, buni ular 1512-yilda o'rnatgan stelasidagi yozuv ham tasdiqlaydi. 1600-yilda ibodatxona yong'inda yonib ketgan, lekin tez orada yana tiklangan. 1642 yilda Xitoyda yana bir dehqonlar qo'zg'oloni paytida qo'zg'olonchilar Kayfengni Xuanxe daryosining suvlari bilan to'ldirib, daryoni yangi yo'nalishga yo'naltirdilar. Ibodatxona va yahudiy qabristoni vayron bo'ldi, ko'plab yahudiylar halok bo'ldi. 1644-yilda dehqonlar qo'zg'oloni Jurchenlarning avlodlari bo'lgan manjurlar tomonidan bostirilib, Pekinni egallab, Xitoyda o'z sulolasining hokimiyatini o'rnatdilar, bu tarixga Sin nomi bilan kirdi. Ibodatxona 1653 yilda qayta tiklangan va 1663 yilda muqaddaslashtirilgan, bu o'sha yili sinagogani tiklash, Tavrot muqaddas matnlarni qayta tiklash va nusxalashda qatnashgan yahudiy jamoasining barcha a'zolarining ismlari yozilgan steladagi yozuvda saqlanib qolgan. Xitoy yahudiylarining diniy yo'lboshchilari o'z dinlari Xitoy sivilizatsiyasini ifodalovchi donishmand Konfutsiyni g'oyalariga to'liq mos kelishini va Injil qahramonlari Odam Ato va Nuh Xitoy mifologiyasi qahramonlari bilan bir xil ekanligini isbotlashga urinishlari haqida ma'lumotlar mavjud - birinchi odam Pangu va insoniyatning ajdodi Nuva kabi. Vaqt o'tishi bilan xitoylik yahudiylar yahudiy bayramlarini Xitoy taqvimiga ko'ra nishonlay boshladilar [7].

Mo'g'ul davrining yilnomachisi Juvayni aytib o'tganidek, garchi yahudiylar mo'g'ullar davrida musulmonlar, nasroniylar va "butparastlar" - buddistlar va butparast shamanistlarga bergan barcha imtiyozlarga ega bo'lmagan bo'lsa-da, ta'kidlash kerakki, xorijiy hukmron sulolalar – Mo'g'ul Yuan, Jurchen Tszin va Manchu, hamda Sin davrida Xitoydagi yahudiylar hech qachon diniy va irqiy ta'qiblarga uchramagan. Shunday qilib, Xitoyning uzoq tarixiy davrlarida Chingizxonning Buyuk Mo'g'ul ulusida va uning birinchi merosxo'rlari Osmon imperiyasi yerlarida, uning avlodlari davlati - Yuan imperiyasida, Jurchen imperiyalari - Tszin, manjurlar - Sin, shuningdek, Xitoyda Xan, Tang, Sun va Min imperiyalari kabi tarixiy davrlarda yahudiylar nafaqat puldorlar va savdogarlar yoki amaldorlar, balki mohir hunarmandlar, "qiyoslab bo'lmaydigan" shifokorlar va tabiblar, "mashhur munozaralar" ishtirokchilari, Konfutsiy qonunlarining olimlari va tarjimonlari, yahudiy ibodatxonalari - sinagogalar quruvchilari, Tavrotning muqaddas matnlarining ulamolari sifatida faoliyat yuritganlar. Shuningdek asrlar davomida yahudiylarning urf-odatlar va ibroniy tilini bilishlari, fors va arab tillarini bilgan mutaxassislari, yahudiylik bo'yicha xitoy tilidagi kitoblar mualliflari, xalqlar tarixi va madaniyatida o'z izlarini qoldirgan [8].

Islom Xitoyga Tang davrining (milodiy 618–907) boshida, shimoli-g'arbdan, Shinjon orqali va janubi-sharqdan dengiz orqali kirgan. O'sha davrda Xitoydagi musulmonlar asosan arablar va forslar edi. Tang davrida Xitoy ham O'rta Osiyo, ham arab qirolliklari bilan aloqada bo'lgan. 742

- yilda o'sha vaqtdagi Xitoyning poytaxti Chan'an shahrida (Sian) mashhur masjid qurilgan bo'lib, keyinchalik u Buyuk Sian masjidi deb nomlangan.

Mo'g'ul Yuan sulolasi davrida (1271–1368) nafaqat jangchilar, savdogarlar va voizlar, balki aslzoda musulmon oilalari vakillari ham Xitoyga ko'chib kela boshlagan. Xitoyga hukmdor bo'lgan ba'zi mo'g'ul xonlari islom diniga e'tiqod qilib, Xitoyni boshqarishga o'zlarining musulmon ustozlarini yollaganlar. Ammo Mo'g'ullarning Yuan sulolasi o'rniga Min sulolasi (1368- 1644) hukronligi boshlangach musulmonlar ko'plab imtiyozlardan mahrum bo'ldilar [9].

Xuey musulmonlar jamoasi Xitoydagi jamiyat hayotining turli jabhalarida muhim rol o'ynagan. Dastlab xitoylik musulmonlar islom va islom madaniyatini yoyish maqsadida masjidlarda islom dinini o'rgatishni boshladilar. Bunday ta'limni birinchi bo'lib Shanxay provinsiyasidan Xu Denchjou qo'llab-quvvatladi. Masjidlarda islom dinining o'qitilishi Xitoyning markaziy va shimoli-g'arbiy qismidagi musulmonlar hayotiga asta-sekin ta'sir etib, islom madaniyatining keng miqyosda tarqalishiga ma'lum darajada hissa qo'shdi. O'sha davrda muqaddas islomiy matnlarni xitoy tiliga tarjima qilish ishlari amalga oshirildi. Min imperiyasi davrida Vandivu, Machu, Liuji, Jin Tyan Chju va Mafuchu kabi ko'plab musulmon olimlari nafaqat islom va uch din konfutsiylilik, daotsizm va buddizm haqida yaxshi ma'lumotga ega bo'lgan, balki xitoy va arab tillarida ravon so'zlashadigan olimlar sifatida tanilgan. Ular islom dinining muqaddas matnlarini izohlashda Konfutsiy adabiyotidan foydalanganlar, ko'plab asarlar yozib, tarjima qilganlar[10].

«Islom dinining tarqalishi natijasida Xitoyda dungon yoki tungon deb atalgan yangi etnos shakllangan. Ayrimlar tungon xalqini islom dinini qabul qilgan xitoylar, deb hisoblaydi. Aslini olganda, tungonlar turli davrda har xil sabablar bilan Xitoyga kelib muqim yashab qolgan turkiy xalqlar, arablar va eronliklar avlodlaridan iboratdir. Ular ichida bevosita savdo ishlari bilan borib qolib ketganlar ko'pchilikni tashkil etgan» [11].

Xitoy musulmonlari mahalliy masjidlari xayr-ehson qilgani yozilgan ko'p sonli bitiklar tomonidan aks ettirilgan. Xayriya odatda pul, yer va uy shaklida amalga oshirilgan. Xitoylik musulmonlar o'limidan so'ng o'z farzandlari yoki boshqa oila a'zolaridan mol-mulklarini masjidlariga hadya qilishni so'rashlari mashhur bo'lgan. Xitoy musulmonlari odatda o'z xayr-ehsonlaridan foydalanish bo'yicha o'ziga xos talablarga ega bo'lishgan va bitiklarda "uni boshqa maqsadlarda hech qanday bahona bilan ishlatib bo'lmaydi" kabi so'zlar kam uchraydi. Xitoy musulmonlarining xayr-ehsonlaridan to'g'ri foydalanish talablari xitoylik musulmonlarning o'z jiaofanglariga chinakam sodiqlik va g'amxo'rlikdan dalolat beradi. Yordam qiluvchilar odatda qurbonlik sotib olish, muqaddas kunlarda ziyofatlar o'tkazish, kambag'allarga yordam va dafn xarajatlari, diniy o'qituvchilarni ishga olish, islom maktablarini saqlashga yordam berishni xohlaydilar [12].

Umuman olganda, arab va islom dunyosidagi katta masjidlar ham muhim ta'lim muassasalari hisoblanadi. Ammo kech Min va erta Sin davridan oldin, Xitoy masjidlarida bu tarbiyaviy funktsiya yo'q edi. Vaziyat kech Min davrida o'zgara boshladi. Xitoy musulmonlarining Xitoy madaniyatiga singib ketish darajasi va ularning diniy farqlarini asta-sekin yo'qotib borayotganidan xavotirga tushgan xitoylik musulmon adabiyotshunoslari islom uyg'onish harakatini boshladilar. Ularning oddiy xitoylik musulmonlarning islomiy ongini tiklash yo'llaridan biri masjidlar ichida "Muqaddas diniy kitoblarni o'rganish zali" deb nomlangan bepul va ommaviy islom maktablarini tashkil etishlari edi. O'sha maktablar xan xitoylaridan xususiy maktablar shaklini o'zlashtirdi, lekin joylashuvi va o'quv dasturlari jihatidan farq qildi. Islom maktabida odatda klassik islom matnlari, asosiy arab tili va ba'zan fors tili ham o'rgatilgan. Ayrim yirik va nufuzli maktablarda ham takomillashgan islomiy asarlar o'qitilgan [13].

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, xitoyda tarqalgan dinlar va diniy-falsafiy qarashlar tarixini har tomonlama o'rganish – juda keng qamrovli yondashuvni va turli mintaqa olimlarining bu yo'nalishdagi tadqiqotlari yutuqlaridan foydalanishni talab etadi. Bu zamin xalqlari tomonidan asrlar davomida yaratilgan buyuk ma'naviy qadriyatlar ushbu zaminda yuzaga kelgan yuksak madaniyatning shakllanishi va taraqqiy topishida muhim rol o'ynagan. Xususan xristianlik, yahudiylilik va islom dinlari xitoydagi turli davrlardagi siyosiy va ijtimoiy vaziyatlar sabab o'z diniy qarashlarini imkon qadar mahalliy diniy-falsafiy qarashlarga solishtirishga va moslashtirishga urinishlari o'z diniy g'oyalarini mazkur hududlarda ham yoyilishini yoki butunlay yo'q bo'lib ketishini oldini olishga qaratilgan harakatlar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nizomiddinov N.G'. Qadimgi Xitoy tarixi, diniy e'tiqodi va madaniyati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. – B, 324.
2. Nizomiddinov N.G'. Qadimgi Xitoy tarixi, diniy e'tiqodi va madaniyati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. – B, 324.
3. Ломанов А. В. Христианство и китайская культура. – Москва: “Восточная литература”, 2002. – С. 158.
4. Zurcher E. “In the beginning”: 17 –th century Chinese reactions to Christian creationism// Time and space in Chinese culture. – Leiden, 1995. P – 132.
5. Кадирбаев А.Ш. “Иудеи в императорском Китае” (от Юан до Син). –Москва: 2008. – С. 58.
6. Кадирбаев А.Ш. “Иудеи в императорском Китае” (от Юан до Син). –Москва: 2008. – С.
7. Кадирбаев А.Ш. “Иудеи в императорском Китае” (от Юан до Син). –Москва: 2008. – С. 59.

8. Кадирбаев А.Ш. “Иудеи в императорском Китае” (от Юан до Син). – Москва: 2008. – С. 59.
9. Захарьин А. Ислам в Китае. – Москва: 2010. – С. 56.
10. История ислама в Китае, от культурной адаптации до художественного творчества iqna.ir/ru. 2017.
11. Хо‘jayev A. Buyuk ipak yo‘li: munosabatlar va taqdirlar. T: “O‘zbek milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2007. B – 35.
12. Zhang Shaodan and Sh. Chinese muslims in the Qing empire: Public culture, identities, and law, 1644-1911. – Urbana, Illinois: 2015. – P. 20.
13. Zvi Ben-Dor Benite, The Dao of Muhammad: A Cultural History of Muslims in Late Imperial China (Cambridge, Mass.: Harvard University Asia Center, 2005). – P. 24.